

INFLYATSIYA: O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYA DARAJASI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termez state university

nturopova@tersu.uz

Qudratov Isoq Ibrohim o'g'li

Termiz Davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10927388>

Annotatsiya: Maqolada inflyatsiya tushunchasi va O'zbekiston iqtisodiyotida so'ngi yillardagi inflyatsiya darajasi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, taklif inflyatsiyasi, talab inflyatsiyasi, iste'mol narxlari indeksi, YaIM deflyatori, target

Abstract. The article describes the concept of inflation and the level of inflation in the economy of Uzbekistan in recent years

Keywords: Inflation, supply inflation, demand inflation, consumer price index, GDP deflator, target.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiyotda inflyatsiya o'zishi tabiiy holdir. Har qanday inflyatsiyaning negizida asosiy iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi yotadi. Shu sababli inflyatsiyaga qarshi kurash – uni shunchaki bostirish emas, balki iqtisodiyotda vujudga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan baquvvat tarkibiy siyosatini amalga oshirishdir. Bir qator chet mamlakatlarning inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular inflyatsiya bilan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining buzilishi bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini anglagan holda, pul muomalasi sohasini qat'iy boshqarish va to'lovga qobiliyatli ortiqcha umumiy talabni bartaraf etish bilangina cheklanmadilar.

Adabiyotlar tahlili. Izlanishlarimiz natijasida "Inflyatsiya" atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflyatsiya atamasi dastlab muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlagan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini to'liq ochib bermaydi. Umuman olganda, inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Inflyatsiya (lotincha "inflatio" - shishish, bo'rtish, taranglashish) – degan ma'nolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi (o'sishi) tushuniladi. Narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.^[1]

Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi.

Misol uchun, yilning boshida 100 ming so'mga sotib olish mumkin bo'lgan kundalik iste'moldagi tovar va xizmatlarning miqdori yilning oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 100 ming so'mga yilning oxirida yilning boshidagiga nisbatan xuddi o'sha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar hajmi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa yoki yalpi talab ko'paygani holda taklif o'zgarimasdan tursa, bu nomutanosiblik narxlar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflyatsiya turli darajalarda bo'ladi^[2]:

1-jadval

Inflyatsiya turlari

Sudraluvchi (mo'tadil) inflyatsiya	Shiddatli (galloping) Inflyatsiya	Giperinflyatsiya
Uzoq vaqt davomida barqaror va past darajada bo'lgan inflyatsiya (zamonaviy iqtisodiyot uchun yiliga 1-4% normal hisoblanadi)	Inflyatsiyani yillik darajasi 10% dan oshib, har oyda o'sib boradi	Mamlakatda o'rtacha narx-navoning haddan tashqari oshgandagi holati bo'lib, oyiga 50%, yiliga esa 50 baravardan ham ko'proq oshishi mumkin

Giperinflyatsiyaning rasmiy mezonini amerikalik iqtisodchi Filip Kegan tomonidan kiritilgan. Uning fikriga ko'ra, narxning o'sish darajasi oyiga 1,5 barobar yoki 50% ga yetganda giperinflyatsiya jarayoni boshlangan hisoblanadi. P.Samuelsonning fikriga ko'ra esa, giperinflyatsiya sharoitida inflyatsiya darajasi yiliga 200 foizdan (P.Samuelson mezonini) oshadi.^[3]

Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon.

Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

2-jadval

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra turlari

Talab inflyatsiyasi	Taklif inflyatsiyasi
Inflyatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib	Inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada

ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.	ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi
--	--

Narxlarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

- valyuta kurslarining o'zgarishi;
- kredit berish shartlarining qimmatlashuvi va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;
- kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati narxining o'sishi

Inflyatsiya darajasini aniqlashda iste'mol narxlari indeksidan foydalaniladi. Iste'mol narxlari indeksini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi^[4]:

$$INI = \frac{\sum Q_0^i P_1^i}{\sum Q_0^i P_0^i}$$

bu yerda: Q_0^i – iste'mol savatiga kiritilgan, i – tovar va xizmatlarning bazis yilida miqdori; P_1^i – iste'mol savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlarning joriy yildagi narxi; P_0^i – iste'mol savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlarning bazis yildagi narxi.

Iste'mol narxlari indeksi – uy-xo'jaliklari talabidan kelib chiqib, ma'lum bir tovar va xizmatlar umumiy narxlarining o'rtacha o'zgarish darajasini aks ettiradi. Ushbu umumiy ko'rsatkich iste'mol savatidagi har bir tovar va xizmat uchun narxlarning o'zgarishini inobatga olgan holda hisoblanadi.

Iste'mol narxlari indeksi orqali inflyatsiya darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\begin{aligned} N - \text{yildagi inflyatsiya darajasi} &= \\ &= \frac{N - \text{yildagi INI} - (N - 1) - \text{yildagi INI}}{(N - 1) - \text{yildagi INI}} \times 100 \end{aligned}$$

Inflyatsiya darajasini aniqlashda deflyator ko'rsatkichidan ham foydalanish mumkin.

YalM deflyatori – mamlakat miqyosida barcha ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar o'rtacha narxining bazis davriga nisbatan o'zgarish dinamikasini ifodalovchi indeksdir.

Deflyator ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\text{Deflyator} = \frac{\sum Q_1^i P_1^i}{\sum Q_1^i P_0^i} \times 100$$

bu yerda: Q_1^i – joriy yilda iste'mol savatiga kiritilgan i – tovar yoki xizmatlar miqdori; P_1^i – joriy yilda iste'mol savatiga kiritilgan i – mahsulotning shu yilga narxi; P_0^i – joriy yilda iste'mol savatiga kiritilgan i – mahsulotning bazis yildagi narxi.

Yalpi ichki mahsulot deflyatori orqali inflyatsiya darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\begin{aligned} N - \text{yildagi inflyatsiya darajasi} &= \\ &= \frac{N - \text{yildagi Deflyator} - N - 1 - \text{yildagi Deflyator}}{N - 1 - \text{yildagi Deflyator}} \times 100 \end{aligned}$$

Oddiy uy xo'jaligi iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan barcha tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilmaydi. Shuning uchun YalM deflyatori uy xo'jaliklari inflyatsiyasini o'lchash uchun mos ko'rsatkich hisoblanmaydi.


Har qanday inflyatsiyaning negizida asosiy iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi yotadi. Shu sababli inflyatsiyaga qarshi kurash – uni shunchaki bostirish emas, balki iqtisodiyotda vujudga

kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan baquvvat tarkibiy siyosatini amalga oshirishdir. Bir qator chet mamlakatlarning inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular inflyatsiya bilan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining buzilishi birbiriga chambarchas bog'liq ekanligini anglagan holda, pul muomalasi sohasini qat'iy boshqarish va to'lovga qobiliyatli ortiqcha umumiy talabni bartaraf etish bilangina cheklanmadilar

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Inflyatsion targetlash – bu davlat idoralari tomonidan mamlakatda inflyatsiyani nazorat qilish uchun ko'radigan monetar chora-tadbirlar majmuidir. **“Target”** so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “nishon” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning mo'ljalga olinayotgan ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.


Inflyatsiyaning mo'ljallanayotgan ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi. O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin.

2019-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida”gi PF-5877-sonli farmonida O'zbekiston Markaziy banki 2020-yil 1-yanvardan bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tishi belgilangan edi. Ushbu farmonda inflyatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha, 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish rejalashtirilgan edi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2023-yilda inflyatsiya darajasi 8,77 foizni tashkil etgan. Bu 2016-yildan buyon eng past ko'rsatkichdir.

2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan “Pul-kredit siyosatining 2023-yil va 2024-2025-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari” nomli qo'llanmasida mamlakatimizda joriy inflyatsiyaning erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichi 5 foiz etib belgilangan. Iqtisodiyotda va tashqi vaziyatda yuzaga kelgan tendensiyalar maqsadli ko'rsatkichga erishish davri 2024-yilning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda^[5].



1-rasm. Tovar va xizmatlar INI, %da



2-rasm. Mamlakatimiz viloyatlar bo'yicha kuzatilgan inflyatsiya darajasi^[6].

Xulosa. Iqtisodiyotda inflyatsiyaning izchil past darajasini ta'minlash aholi farovonligini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda

aholi uchun ham, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ham past darajadagi inflyatsiyaning barqarorligi va prognoz qilinishi juda muhim.

Inflyatsiya deganda ma'lum bir davrda mamlakatda o'rtacha (umumiy) narxlar darajasining barqaror o'sishi va pulning xarid qobiliyatining uzoq muddatga pasayishi tushuniladi. Inflyatsiyaning iqtisodiyotga salbiy ta'siri normal iqtisodiy munosabatlarning buzilishida namoyon bo'ladi. Inflyatsiya darajasi narx indeksleri yordamida o'lchanadi. Ularning paydo bo'lish sabablariga ko'ra talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi farqlanadi. Ushbu ikki turdagi inflyatsiya ko'pincha aralashtiriladi. Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qarzidorlar va kreditorlar, aholining turli qatlamlari, davlat va aholi o'rtasida qayta taqsimlaydi.

O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatini amalga oshirish inflyatsiya sur'atlarini cheklash imkonini beruvchi inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali takomillashtirish rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimizda inflyatsiyaning oldini olish uchun, agar biz mamlakatdagi pul miqdorini naqd pulsiz (plastik kartochkalar) shaklga aylantira olsak, biz mamlakatimizda inflyatsiya darajasini pasaytiramiz, chunki pul miqdori qancha ko'p va tezroq ishlab chiqariladi. mamlakat qanchalik yaxshi rivojlansa. Plastik kartochkalardan to'liq foydalanish uchun mamlakatimizning har bir hududida internet tarmog'i tizimini yaratishimiz zarur.

References:

1. <https://daryo.uz/2023/12/31/ozbekistonda-yillik-inflyatsiya>
2. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation/>
3. Mahmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021, -316 b.
4. Bekmurodov N.X., Tuxtabayev J.Sh., Yuldashev Sh.E., Usmanov A.A., Yarmatov Sh., Nurullayev U.U., Hasanov H.O'. Makroiqtisodiyot. Darslik. - Toshkent: "Bookmany print", 2022, -344 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.
6. <https://daryo.uz/static/2023/12/31/stat85-Cqor89U6.jpg>
7. Khurramov E. X. Role of innovation in increasing efficiency of production of agricultural products in forestry //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – C. 518-521.
8. Mukhammadiyevich O. S. Experiences in the study and analysis of population employment in foreign countries //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 12.
9. Muhammadiyevich O. S. Main problems of population employment and ways to solve them //American Journal of Science on Integration and Human Development. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 10-13.
10. Ortikov S. M. Experience in statistical study and analysis of employment in foreign countries //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – T. 10. – №. 7.
11. Ismatov S. A., Ortikov S. M. The population bandhini tamines, turmus of regine oshirildi humiliation tagirova and using Uzbekistana characteristic.(Foreign experience in providing employment, improving well-being and its specifics for Uzbekistan) //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – C. 521-526.

12. G'aybullayevich X. A. Iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ahamiyati: Crossref //Iqro. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 68-71.
13. G'aybullayevich X. A. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solishning strategik yo 'nalishlari //Pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 545-548.
14. Khidirberdievich A. E., Mamadillayevich Z. S. Issues of Regulation of Blockchains in the Digital Economy and World Experience in Reducing, Preventing the" Hidden Economy" //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 7. – C. 591-597.
15. Allayor o'g'li X. R. Eksport faoliyatini takomillashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi //technical science research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 154-160.
16. Allayor o'g'li X. R. Eksport va eksport salohiyati tushunchalariga nazariy qarashlar //Journal of Universal Science Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 202-210.
17. Solijonovna S. R. Import Replacement-As an Assistant Mechanism for Diversification of Production and Approval of Foreign Trade. – 2023.
18. Turopova N. O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari. – 2023.
19. Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 437-345.
20. Буранова Л. В. и др. Повышение эффективности управления кредитными ресурсами предприятия //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 329-333.
21. Abdugabbarovna D. L., Tokhtayevich E. S. Peculiarities of increasing the income of the population in the region //Open access repository. – 2024. – T. 10. – №. 1. – C. 74-77.
22. Abdugabbarovna D. L., Samandarovich I. E. Improvement of the organizational and legal basis of microfinancing of small business and private entrepreneurship //Open access repository. – 2024. – T. 10. – №. 1. – C. 65-68.
23. Norqobilov N. The role of foreign investment in the development of the economy of Kashkadarya region //Business Expert. – 2020. – T. 1. – C. 145.
24. Norkobilov N. N. Structure and features of expanding investment in the southern region of Uzbekistan //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 704-709.
25. Sultonov, X. G. (2022). Effectiveness of attracting investments in improving the ecological condition of irrigated lands. Экономика и социум, (4-1 (95)), 56-60.